

## VI. TRANSPORT VA ALOQA

Mustaqillik yillarda transport va kommunikatsiya tizimini strategik rivojlantirish bo‘yicha katta ishlar amalga oshirildi.

Mamlakatimizda yaratilgan samarali transport tizimi tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va boshqa mamlakatlar bilan integratsiyalashuv omilidir.

**Yuk tashish.** 2023-yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transporti tomonidan 36,6 mln. tonna yuk tashilgan bo‘lib, o‘sish sur’ati 2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 103,0 % ni tashkil qildi.

Yuk aylanmasi avtomobil transporti turlari tomonidan 774,3 mln. t-km.ni tashkil etdi va 2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 95,7 % ni tashkil qildi.

### Avtomobil transportida yuk tashish va yuk aylanmasi

(2023-yilning yanvar-sentabr holatiga)

	2023-yil yanvar-sentabr	2022-yilning yanvar-sentabr nisbatan % hisobida
Tashilgan yuk, mln. t.	36,6	103,0
Yuk aylanmasi, mln. t-km	774,3	95,7

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning avtomobil transportida yuk aylanmasining o‘sish sur’ati 2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 106,2 % ni tashkil etdi va 358,8 mln. t-km.ga yetdi. Yuk aylanmasining umumiy hajmida xususiy yuk tashuvchilarining ulushi 79,4 % ni tashkil etdi (2022-yilning yanvar-sentabr oylarida 102,2 % ni tashki qilgan edi).


Andijon viloyatining shahar va tumanlari kesimida tashilgan yuk bo‘yicha yetakchi o‘rinni Andijon shahri (16 208,1 ming tonna) egalladi. Shu bilan birga, eng yuqori ko‘rsatkichlar Asaka (2 524,0 ming t) va Andijon (2 336,5 ming tonna) tumanlarida kuzatildi.

**Shahar va tumanlar kesimida yuk tashish, ming tonna**  
 (2023-yilning yanvar-sentabr holatiga)

	<i>Jami tashilgan yuk ming tonna</i>	<i>2022-yilning yanvar-sentabrga nisbatan % hisobida</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, % hisobida</i>
<b>Viloyat bo‘yicha:</b>	<b>36 616,5</b>	<b>103,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shaharlar:</i>			
Andijon	16 208,1	103,7	44,3
Xonobod	1 161,5	101,7	3,2
<i>tumanlar:</i>			
Andijon	2 336,5	102,3	6,4
Asaka	2 524,0	102,5	6,9
Baliqchi	1 595,5	101,6	4,0
Bo‘ston	721,7	101,1	2,0
Buloqboshi	799,3	101,8	2,2
Jalalquduq	1 345,6	101,9	3,7
Izboskan	908,3	101,8	2,5
Qo‘rg‘ontepa	1 569,9	102,3	4,3
Marhamat	1 231,7	101,5	3,4
Oltinko‘l	1 271,6	101,8	3,5
Paxtaobod	1 565,3	102,0	4,3
Ulug‘nor	756,2	100,9	2,1
Xo‘jaobod	1 198,9	101,8	3,3
Shahrixon	1 422,4	102,2	3,9

Ko‘rsatilgan yuk tashishda yuqori bo‘lmagan ko‘rsatkichlar Bo‘ston (721,7 ming tonna) va Ulug‘nor (756,2 ming tonna) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**Tashilgan yukning umumiy hajmida shahar va tumanlarning ulushi, % da  
(2023-yil yanvar-sentabr)**



Hududlar bo'yicha tashilgan yukning yuqori ulushi bo'yicha yetakchi o'rinni Andijon (44,0 %) shahri egalladi. Shu bilan birga Asaka (6,9 %) va Andijon (6,4 %) tumanlarida kuzatildi.


Viloyatning yuk aylanmasi hajmida yetakchi o'rinni Andijon shahri (337 590,4 ming tonna-km) egalladi. Shu bilan birga eng yuqori ko'rsatkich Asaka (57 913,3 ming tonna-km), Andijon (50 349,4 ming tonna-km) tumanlarida kuzatildi.

**Shahar va tumanlar kesimida yuk aylanmasi, ming tonna-km**  
*(2023-yilning yanvar-sentabr holatiga)*

	<i>ming tonna-km</i>	<i>2022-yilning yanvar-sentabrga nisbatan % hisobida</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, % hisobida</i>
<b>Viloyat bo‘yicha:</b>	<b>774 360,4</b>	<b>95,7</b>	<b>100,0</b>
<i>shaharlar:</i>			
Andijon	337 590,4	96,5	43,6
Xonobod	26 827,8	94,7	3,5
<i>tumanlar:</i>			
Andijon	50 349,4	95,7	6,5
Asaka	57 913,3	95,4	7,1
Baliqchi	22 873,9	94,2	3,0
Bo‘ston	14 471,5	94,1	1,9
Buloqboshi	22 322,7	95,1	2,9
Jalaquduq	27 652,7	94,9	3,6
Izboskan	20 892,5	95,6	2,7
Qo‘rg‘ontepa	27 711,0	95,1	3,6
Marhamat	28 331,0	94,6	3,7
Oltinko‘l	28 390,9	94,8	3,7
Paxtaobod	35 371,3	95,0	4,6
Ulug‘nor	15 977,7	94,0	2,1
Xo‘jaobod	22 275,8	94,9	2,9
Shahrixon	35 408,5	95,1	4,6

Ko‘rsatilgan yuk aylanmasidagi yuqori bo‘lmagan tonna-km quyidagi Bo‘ston (14 471,5 ming tonna-km) va Ulug‘nor (15 977,7 ming tonna-km) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**Tashilgan yuk aylanmasining umumiy hajmida hududlarning ulushi, % da  
(2023-yil yanvar-sentabr)**



Hududlar bo'yicha tashilgan yuk aylanmasining yuqori ulushi bo'yicha yetakchi o'rinni Andijon (43,6 %) shahri egalladi. Shu bilan birga Asaka (7,1 %) va Andijon (6,5 %) tumanlarida kuzatildi.

Aholiga, shu jumladan, iqtisodiyotning barcha sohasida faoliyat ko'rsatayotgan ishchi-xizmatchilarga, o'quv muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchi va talabalarga yuqori sifatli transport xizmatini ko'rsatish, avtomobil trasnporti oldida turgan eng muhim masaladir. Bugungi kunda hech bir fuqaro harakatini (bir manzildan boshqa bir manzilga borishni) transportsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

**Yo'lovchi tashish.** 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportining barcha turlari tomonidan 533,9 mln. kishi tashilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 101,2 % ni tashkil etdi. Yo'lovchi tashish aylanmasining ushbu davrda o'sish sur'ati 104,0 % ga yetib 9 608,9 mln. yo'lovchi-km.ni tashkil qildi.

**Avtomobil transport yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi**

	2023-yil yanvar-sentabr	2022-yilning yanvar-sentabr nisbatan % hisobida
<b>Transportda tashilgan yo'lovchilar, mln. kishi</b>	533,9	101,2
<b>Yo'lovchi aylanmasi, mln. yo'lovchi-km</b>	9 608,9	104,0

Jami avtomobil transportidagi yo'lovchi aylanmasi 2022-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 100,2 % ga yetdi va 9 114,2 mln. yo'lovchi-km.ni tashkil qildi.

Viloyatning tuman, shaharlari bo'yicha tashilgan yo'lovchi bo'yicha yetakchi o'rinni Andijon (215 916,4 ming kishi) shahri egalladi. Shu bilan birga, eng yuqori ko'rsatkichlar Asaka (58 147,1 ming kishi), Andijon (31 944,2 ming kishi) tumanlarida kuzatildi.

## Hududlar kesimida yo‘lovchi tashish, ming kishi

*(2023-yil yanvar-sentabr holatiga)*

	<i>ming kishi</i>	<i>2022-yilning yanvar-sentabr nisbatan % hisobida</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, % hisobida</i>
<b>Viloyat bo‘yicha:</b>	<b>533 938,7</b>	<b>101,2</b>	<b>100,0</b>
<i>shaharlar:</i>			
Andijon	215 916,4	102,3	40,4
Xonobod	14 289,4	100,3	2,7
<i>tumanlar:</i>			
Andijon	31 944,2	100,9	6,0
Asaka	58 147,1	101,1	10,9
Baliqchi	19 033,6	100,2	3,3
Bo‘ston	7 891,1	99,7	1,5
Buloqboshi	11 125,1	100,4	2,1
Jalaquduq	21 211,7	100,5	4,0
Izboskan	21 720,4	100,4	4,1
Qo‘rg‘ontepa	27 685,0	100,9	5,2
Marhamat	17 430,0	100,1	3,3
Oltinko‘l	18 012,1	100,4	3,4
Paxtaobod	20 171,2	100,6	3,8
Ulug‘nor	8 485,1	94,6	1,6
Xo‘jaobod	19 601,3	100,4	3,7
Shahrixon	21 275,0	100,8	4,0

Ko‘rsatilgan yo‘lovchi tashishda nisbatan uncha yuqori bo‘lmagan ko‘rsatkichlar, Bo‘ston (7 891,1 ming kishi) va Buloqboshi (11 125,1 ming kishi) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**Tashilgan yo‘lovchining umumiyligi hajmida hududlarning ulushi, % da  
(2023-yil yanvar-sentabr)**



Shahar va tumanlar kesimida tashilgan yo‘lovchining yuqori ulushi bo‘yicha yetakchi o‘rinni Andijon (40,4 %) shahri egalladi. Shu bilan birga Asaka (10,9 %) va Andijon (6,0 %) tumanlarida kuzatildi.


Viloyatning yo‘lovchi aylanmasi hajmida yetakchi o‘rinni Andijon shahri (3 921,0 mln. yo‘lovchi-km) egalladi. Shu bilan birga eng yuqori ko‘rsatkich Asaka (1 015,5 mln. yo‘lovchi-km) va Andijon (571,1 mln. yo‘lovchi-km) tumanlarida kuzatildi.

**Shahar va tumanlar kesimida yo‘lovchi aylanmasi, mln. yo‘lovchi-km**  
 (2023-yil yanvar-sentabr holatiga)

	<i>mln yo‘lovchi-km</i>	<i>2022-yilning yanvar-sentabr nisbatan % hisobida</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, % hisobida</i>
<b>Viloyat bo‘yicha:</b>	<b>9 608,9</b>	<b>104,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shaharlar:</i>			
Andijon	3 921,1	106,1	40,8
Xonobod	256,5	102,8	2,7
<i>tumanlar:</i>			
Andijon	571,1	103,0	5,9
Asaka	1 015,5	102,7	10,6
Baliqchi	337,7	101,5	3,5
Bo‘ston	140,6	101,4	1,5
Buloqboshi	199,7	102,9	2,1
Jalaquduq	389,2	102,7	4,1
Izboskan	389,9	102,9	4,1
Qo‘rg‘ontepa	501,1	104,3	5,3
Marhamat	301,3	101,9	3,1
Oltinko‘l	311,4	102,1	3,2
Paxtaobod	359,2	102,3	3,7
Ulug‘nor	252,8	101,3	2,6
Xo‘jaobod	302,2	102,2	3,1
Shahrixon	359,6	102,4	3,7


Ko‘rsatilgan yo‘lovchi aylanmasidagi uncha yuqori bo‘lmagan yo‘lovchi-km Ulug‘nor (252,8 mln. yo‘lovchi-km) va Buloqboshi (199,7 mln. yo‘lovchi-km) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**Tashilgan yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida  
hududlarning ulushi, % da**  
(2023-yil yanvar-sentabr)



Shahar va tumanlar kesimida yo‘lovchi aylanmasining yuqori ulushi bo‘yicha yetakchi o‘rinni Andijon (40,8 %) shahri egalladi. Shu bilan birga Asaka (10,6 %) va Andijon (5,9 %) tumanlarida kuzatildi.

**Avtomobil transportida yuk tashish, yuk aylanmasi,  
yo‘lovchi tashish va yo‘lovchi aylanmasi**  
(2023-yil yanvar-sentabr oylarida)



## STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

**Umumiy foydalanishdagi avtomobil transporti** – aholini va iqtisodiyotni barcha tarmoqlarining yo'lovchilar, bagajlar va yuklar, shu jumladan, pochtalarni avtomobillarda tashishga bo'lgan ehtiyojlarini tijorat asosida ta'minlovchi transport.

**Avtotransport vositalari** – yo'lovchilar, bagajlar, yuklar tashishga hamda maxsus ishlarni bajarishga mo'ljallangan avtomobillar, shatakchi-avtomobillar, tirkama va yarim tirkamalar.

**Yo'lovchi avtomobili** – o'zining tuzilishi va jihozlanishi jihatidan yo'lovchilar va bagajlarni tashishga mo'ljallangan, zarur qulaylik va xavfsizlik bilan ta'minlangan avtomobil.

**Yuk avtomobili** – yuklarni tashishga mo'ljallangan, qattiq ramali mexanik yo'l transporti vositasi; yuk avtotransporti vositalari foydalanish xarakteri va konstruktiv xususiyatlaridan kelib chiqqan holda umumiy va ixtisoslashtirilgan vositalarga bo'linadi.

**Avtobus, mikroavtobus** – yo'lovchilarni tashishga mo'ljallangan va haydovchi o'rnini hisobga olmaganda sakkiztadan ortiq o'tirish o'rindig'iga ega bo'lgan, qattiq ramali mexanik yo'l transporti vositasi.

**Yengil avtomobil** – haydovchi o'rnini hisobga olmaganda, sig'imi sakkiz kishigacha bo'lgan yo'lovchi avtomobili. Yengil avtomobillar soniga pochta tashishga mo'ljallangan, sanitariya va boshqa maxsus yengil avtomobillar qo'shilmaydi.

**Tashilgan yuklar (yuk tashish hajmi)** – yuk avtomobillarida, shu jumladan avtotirkamalarda, tashilgan yuklar miqdori har bir qatnov uchun yukning tara yoki konteynerlar og'irligini hisobga olgan holdagi haqiqiy og'irligi bo'yicha aniqlanadi (tonnada o'lchanadi). Tashilgan yuk hajmini avtomobilning texnik tavsifnomasida ko'rsatilgan yuk ko'tarish qobiliyati bo'yicha aniqlash, faqatgina tashilgan yukning haqiqiy og'irligi to'g'risidagi ma'lumotlar bo'limgan hollardagina amalga oshirilishi mumkin. Umumiy foydalanishdagi transportlarning barcha turlari uchun (avtotransportdan tashqari) tashilgan yuklarning hajmi jo'natish vaqtida ko'rsatilgan.

**Yuk aylanmasi** – transportning yuk tashish bo'yicha ish hajmi. O'lchov birligi tonna-kilometr hisoblanadi. Transportning yuk aylanmasi tashilayotgan yukning har bir jo'natmasi og'irligini uni tashish masofasiga ko'paytmasining yig'indisi orqali aniqlanadi.

**Tashilgan yo'lovchilar** – ma'lum vaqt davomida avtomobil vositalarida turli qatnov turlari bo'yicha tashilgan yo'lovchilar soni (statistik kuzatuv birligi bo'lib yo'lovchi-qatnovi hisoblanadi).

**Yo'lovchi aylanmasi** – transportning yo'lovchi tashish bo'yicha ish hajmi. O'lchov birligi yo'lovchi-kilometr hisoblanadi. Har bir tashish bo'yicha yo'lovchilar sonini tashish masofasiga ko'paytmasini yig'indisi orqali aniqlanadi. Qatnov turlari va boshqa belgilar bo'yicha alohida hisoblanadi.